

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAXIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI
III-BOSQICH TALABASI
«MUSIQA TARIXI» FANIDAN**

FRANS YOZEF GAYDN ASARLARIDA TARIXIYLIK VAVZUSIDA

KURS ISHI

MUSIQA TA'LIMI 5111100



Raxbar :

Sh.Qodirov

Bajaruvchi:

Sh.Gapparova

ANDIJON-2015

MAVZU: FRANS YOZEF GAYDN ASARLARIDA TARIXIYLIK

Reja:

Kirish

I. Asosiy qism

1. Gaydn ijodini davrlashtirish

2. Gaydn ijodida sonata simfonik uslubining rivoji

3. Frans Yozef Gaydnning “Xayrlashuv simfoniyasi”

.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

MUNDARIJA

Kirish.....	4-5
I.Asosiy qism.....	6
1.Gaydn ijodini davrlashtirish.....	6 -13
2. Frans Yozef Gaydnning “Xayrlashuv simfoniyasi”	14-17
3.Gaydn ijodida sonata simfonik uslibining rivoji.....	18-34
Xulosa.....	35-36
Ilovalar.....	37-40
Foydalanilgan adabiyotlar.....	41

Kirish

Bilamizki, cholg'u musiqa, opera, oratoriya, vocal musiqaning barcha janrlarida chindan ham ulkan yutuqlarni ko'lga kiritgan. Musiqa san'atini vujudga kelishida va rivojlanishiga buyuk kompozitorlarga emas, balki musiqa madaniyatining turli soxalarida uncha dong chiqarmay ishlagan arboblardan ham qatnashganlar. Biroq san'at sozasidagi ajoyib yutuqlar, oldingi zamonlardagi kabi ijodiy yo'lalishlarning keskin kurashi vaziyatida ko'lga kiritilgan.

O'z davrlarida oqimlar kurashi xarakterli hususiyati bilan ajralgan. Bu kurash o'sha davrlarda ishtimoiy tafakkurga – falsafa, estetika, tanqid, publisistikaga ham hos bo'lgan. Jamiyatni demokratik asoslarda va aql idrokka suyanib qayta qurish to'g'risidagi yangi ilg'or g'oyalarni maydonga qo'ygan. Marifat davri bu g'oyalarni jamiyatning umrini yashab bo'lgan feodal tabaqali negizlari, diniy xurofot va bid'atlarga qarshi o'laroq qo'llab quvvatlagan. Marifat davrining ilg'or g'oyalari musiqada ham o'z aksini topgan. O'sha zamon uchun xarakterli bo'lgan tafakkur ratsionalizmi umumlashtirgan musiqa obrazlarining tabiatiga ham, ularni mantiqiy – konstruktiv tipda bayon qilish va rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatgan.

Jamiyat hayotining g'oyaviy soxalaridagi, shu jumladan san'atdagi okimlar kurashi kankret milliy – tarixiy shart-sharoitlarga karab ayrim mamlakatlarda ham xar xil tus olgan va natijada o'sha paytlarda xali yosh bo'lgan Burjuaziya sinfining fiodal tuzumga qarshi qurashidan iborat bo'lgan.

Musiqa san'atida bu kurash musiqali teatr soxasida ayniqsa keskin bo'lgan. Italiya, Fransiya, Angliya va Germaniyada afsonaviy sujetlarga, qadimgi dunyo tarixiga asoslangan, jonli qiziqishini yoqotib qo'ygan va actual bo'lmay qolgan "Katta" operalar hali ham ko'yilgan. Manzaralarni sirtidan dabdabali va ser xasham qilib ko'rsatish maqsadi ko'zlangani uchun ular badiiy va dramatic xaqiqat qurbon bo'lib kelgan. Bu xildagi opera asosan sroy doirasidagi aslzoda axliga xizmat qilgan, jmiyatdagi ilg'or

demokratik qatlamlarning qarashlari va didlariga mos kelmagan. Shu operaga qaramaqarshi, realistic an'analarni o'z ichiga olgan demokratik opera san'ati vujudga kelib rivojlanib borgan.

Lekin cholg'u musiqa soxasida ham sanatkorlar umrini yashab bo'lgan, eskib qolgan barcha narsalarni yengish vazifasini qo'yishdi, yangi mazmunni shakllantirish va gavdalantirib ko'rsatish talab qilingan.

Cholg'u musiqa (simfoniya, sonata, konsert, kamer ansambli janrlari)da sonata – simfonik prinsiplari paydo bo'lishi, rivojlanib borishi va qaror topishi bilan nishonlangan. Bulardan oldingi davr cholg'u musiqasining asosiy shakllari fuga bilan syuita bo'lgan bo'lsa, endi o'zi hosil qilgan shakllarning dialektikligi bilan ijtimoiy ongning birmuncha yuksak bosqichini aks ettiruvchi sonata ana shunday asosiy shakl bo'lib qolgan edi.

Sonata – simfonik sikli shu qadar umri uzoq bo'lib chiqdiki, juda xilma-xil milliy musiqa madaniyatlari va uslublarida hozirgi kungacha ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Kurs ishining dolzarbligi: XVIII asr Evropa san'atiga yozilgan ma'rifat g'oyalari etakchisi Gaydn musiqiy asarlarini asosli xozirgi kundagi ahamiyatini yoritish asos qilib olingan.

Kurs ishining maqsadi: Gaydn asarlari va jaxon musiqa madaniyatiga qo'shgan xissasini, Vena klassik maktabini yoritib berish.

Kurs ishining ob'ekti: Gaydn simfoniyalari va musiqiy ijodiyoti.

Ishning nazariy-metodologik asoslari: Prezident I.A.Karimov asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Davlat farmonlari, tadqiqot mavzusiga oid tadqiqotchi olimlar risola va qo'llanmalari hamda darsliklar tashkil etadi.

Kurs ishi: kirish, asosiy qism uchta reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, har bir reja, asosli ravishda yoritilgan.

1. Gaydn ijodini davrlashtirish

Frans Yozef Gaydnni tor ma'noda simfoniya va kvartet janrining otasi, klassik cholg'u musiqasining buyuk asoschisi zamonaviy orkestrning birinchi tashqilotchisi deb hisoblaydilar.

Frans Yozef Gaydn 1732-yil 31-martda Kuyi Avstriyaning Vengriya bilan chegaradosh bo'lgan Rorau qishlog'ida tug'ildi. Gaydnning ajdodlari avstro-nemis hunarmand-dehqonlaridan bo'lganlar. Kompozitorning otasi Matias kareta (faytun-arava) ustasi bo'lgan. Onasi-kizlik ismi Anna Mariya Roller oshpaz bo'lib xizmat qilgan.

Bo'lajak kompozitor otasining musiqiy qobiliyati va musiqaga bo'lgan muhabbati farzandlariga meros bo'lib qoldi. Kichkina Yozef 5 yoshligidayok musiqachi san'atkorlar diqqatini o'ziga jalb qildi. U ajoyib eshitish eslab kolish. ritmni sezish qobiliyatiga ega edi. Maktab o'qituvchisi va cherkov regenti Frans Gaydnning musiqiy iktidoriga e'tibor qildi. U bolani o'zi yashaydigan Gaynburg shahriga olib ketdi va u yerda Gaydn cherkov xorida qo'shiq aytishni. nota savodi shuningdek skripka va klavesinda chalishni o'rgana boshladi.

Uch yildan so'ng Vena shahrida Avliyo Stefan kafedral sobori koshidagi xor kapellasiga kirdi. Bu yerga uni venalik kompozitor va kapelmeyster Georg Royter taklif qildi va o'zining sobordagi xoriga o'g'il bolalarni izladi. Bu esa Gaydn hayotida muhim vokea bo'ldi. Sababi, musiqiy ma'lumotga ega bo'lishi uchun uning bundan boshqa imkoniyati yo'q edi. Xorda kuylash Gaydn uchun yagona va juda yaxshi maktab bo'ldi. Bolaning qobiliyati tez rivojlanardi va unga yakka kuylash uchun murakkab partiyalarni topshira boshlashdi. Cherkov xori shaxar bayramlarida, to'ylarda, dafn marosimlarida katnashardi. Xor saroy tantanalarida qatnashish uchun ham taklif qilinardi.

Tajribalarga kam e'tibor qilinardi. Gaydn to'qqiz yil davomida kompozitsiyadan atigi ikki marta dars oldi xolos. Bo'lajak kompozitorning haqiqiy o'qituvchisi yo'q edi. Hayotning o'zi uning uchun haqiqiy maktab bo'ldi. Musiqa shinavandasi, pomeschik Karl Fyumberg bilan tanishuv Gaydn uchun ijobiy turtki bo'ldi. Fyumberg tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va moddiy yordamdan

rag'batlangan Gaydn awal qator torli triolari, keyin esa o'zining birinchi torli kvartetni ham yozdi; shundan so'ng tez orada yigirmaga yaqin boshqa asarlarini yaratdi. 1756 yilda Gaydn Do major konsertinj yozdi. Gaydnning metsenati uning moddiy holatining mustahkamlanishi uchun g'amxo'rlik qildi. U kompozitorni chexiyalik oq suyak va musiqa shinavandasi graf Yozef Frans Morsinga tavsiya qildi. Kishni Morsin Venada o'tkazardi, yozda esa chexiyadagi o'zining Lukavets nomli yerida yashardi, bu yerda uning o'n ikkita sozandadan iborat orkestr kapellasi bor edi. Kompozitor va kapelmeyster sifatida Morsin xizmatiga kirgan Gaydn turar-joy, oziq-ovqat va maosh bilan ta'minlangan edi.

Bu xizmat qisqa vaqt (1759-1761 yy.) davom etdi; shunday bo'lsada bu Gaydnning kompozitsiya bo'yicha keyingi ijodi uchun yordam berdi. 1759 yilda Gaydn o'zining birinchi simfoniyasini yozadi, undan keyingi yillarda boshqa to'rtta simfonmiyalarini yaratdi. Torli kvartet sohasida ham, simfoniya sohasida ham Gaydn yangi musiqa davrining janrlarini aniqlashi va qaror toptirishi lozim edi: kvartetlar yozib, simfoniyalar yaratib, u o'zini dadil va kat'iyatli novator sifatida namoyon qildi.

1761 yilda Gaydn yangi, yanada kudratlirok san'at homiysi - juda boy va obro'li venger magnati - knyaz Pavel Anton Estergazidan taklif oldi. Morsinning kasrida Gaydnga e'tibor qilgan Estergazi uning qobiliyatiga ijobiy baho berdi. Venadan uncha uzoq bo'lmagan Eyzenshtadt nomli venger shaharchasida, "Estergaz" bog' saroyida Gaydn o'ttiz yil davomida kapelmeyster (dirijyor) lavozimida xizmat qildi. Kapelmeyster vazifasiga orkestr va qo'shiqchilarga rahbarlik qilish kirardi. Gaydn shuningdek knyaz talabi bo'yicha simfoniyalar, operalar, kvartetlar va boshqa asarlar yozishi kerak edi. Ko'p hollarda injiq knyaz yangi asarni keyingi kungacha yozib tugatishni buyurardi! 1761 yilda Gaydn uchta: "Tong", "Choshgoh", "Oqshom" simfoniyalarini yozdi, ularda Gaydnga xos bo'lgan belgilar musiqaning xalqchil asosi, mavzudagi dinamik ziddiyatlar ko'rinadi.

Kapellega rahbarlik qilib, kompozitor o'zi yaratgan asarlarning jonli ijrosini tinglab ko'rish imkoniyatiga ega edi. Bu kerakli darajada yaxshi chikmagan barcha joylarni tuzatish va muvaffaqiyatli joylarni eslab qolishga yordam berardi.

Knyaz Estergazi xizmatidagi vaqtda Gaydn o'zining ko'plab operalari, kvartetlar va simfoniylarini yozdi. Hammasi bo'lib Gaydn 104 ta simfoniya yaratdi.

Agar Gaydn ilk ijodi davridagi musiqasi shodlik va quvnoqligi bilan ajralib tursa, 70-yillarda esa u mayus, fojiaiylik kayfiyati bilan yo'g'rilgan asarlar yozdi. Otasining o'limidan so'ng mulk egasi bo'lib qolgan yosh knyaz Nikolay Estergazi-ning o'rinsiz e'tirozlari va bergan ozorlari, shuningdek uning badiiy intilishlarini tushunmaydigan, madaniyatsiz ayolga uylanishi kornpozitorning ruhiy ezilishiga sabab bo'ldi. Shu davrda Gaydn "Motam simfoniyasi" va "Xayrlashuv simfoniylarini yozdi.

1772 yilda yozilgan "Xayrlashuv simfoniyasi" kornpozitorning simfonik ijodida alohida o'rin tutadi. Gaydnning ilk ko'ngil ochar simfoniylaridan farqli o'laroq, bu simfoniya Betxoven musiqasining ba'zi sahifalariga yaqin bo'lgan ta'sirchan va dramatik obrazlar ko'proq. Simfoniya an'ana bo'lib qolgan to'rt -qism o'rniga besh qismdan iborat. Simfoniya shamchiroqlar yoqib ijro etiladi. So'nggi qism ijrosida sozandalar navbat bilan shamchiroqlarni o'chirib, cholg'u asboblari olib chikib ketadilar. Simfoniya ikki nafar skripkachi tugatadi. "Xayrlashuv simfoniyasi" haqida rivoyat ham yaratilgan. Knyaz Estergazi o'z kapellasi sozandalariga uzok vaqt ta'til bermagan. Sozandalar yordam so'rab Gaydnga murojaat qilishadi.

Gaydnning mahorati yillar davomida takomillashib bordi. Uning musiqasi Estergazi huzuriga keluvchi ko'p sonli mehmonlarni zavklantirardi. Kornpozitorning nomi o'z vatanidan tashkarida - Angliya, Fransiya, Rossiyada mashhur bo'lib ketdi. 1786 yilda Parijda Gossek rahbarligida ijro etilgan oltita simfoniya "Parij" nomini oldi. 1788 yilda torli orkestr va boialar cholg'u asboblari (kichkina nay, surnay va h.k.) uchun "Boialar simfoniyasi" yaratildi.

XVIII asrning 80-yillarida Gaydn Motsart bilan yaqindan tanishdi. Buyuk kompozitor Gaydnning iktidorini yukori baholadi. Motsart vafotidan keyin yaratilgan o'zining so'nggi asarlarida Gaydn Motsartning simfoniya ijodiga mansub ba'zi tamoyillarni tatbik etdi.

1791 yilda skripkachi va antreprenyor Peter Solomon taklifiga binoan Gaydn Londonga keldi, bu yerda u kator konsertlarga dirijyorlik qilishi, opera va oltita simfoniya yozishi kerak edi. Shu vaqtda keksa knyaz Estergazi vafot etadi. Uning musiqani uncha xushlamaydigan merosxo'ri kapellani tarkatib yuboradi. Birok mashhur bo'lib ketgan kompozitor uning kapelmeysteri sifatida xizmat qilishi unga yokardi. Shu narsa Estergazini "uning xizmatkori" bo'lgan Gaydn boshqa ishga o'tib ketmasligi uchun yetarli bo'lgan nafaka belgilashga majbur qildi. Gaydn baxtli edi! Nihoyat u erkin va mustaqil! Angliyaga konsertlar bilan borish taklifiga u rozilik berdi. O'zining mustaqilligiga qaramasdan Gaydn xizmatni tashlab ketolmasdi. O'sha vaqtlar musiqachi faqat saroy kapellalarida ishlashi yoki cherkov xoriga rahbarlik qilishi mumkin edi. Gaydngacha birorta ham kompozitor mustaqil hayot kechirishga botina olmagandi. Gaydn ham doimiy ishini tashlab ketmaslikka qaror qildi.

Angliyadagi hayot Gaydn uchun g'ayrioddiy tarzda kechdi. O'z asarlariga dirijyorlik qilib o'tkazgan konsertlari misli ko'rilmagan muvaffakiyat kozondi. Bu uning musiqasini ommaviy tarzda ochik tan olinishi edi. Oksford shahri universiteti uni o'zining faxriy a'zoliciga kabul qildi, shu munosabat bilan Gaydn o'zining oldin yaratgan sol major - "Oksford" (1788) simfoniyasini ijro etdi. Angliya poytaxtida u o'zining oltita yangi simfoniyalari("London simfoniyalari"ning birinchi turkumi)ga dirijyorlik qildi va "Orfey va Evridika" nomli operasini yozdi. Londonda Gaydn kirk-ellik nafar musiqachilardan tashqil topgan katta orkestrni boshqardi. Bularning hammasi kompozitorning o'z asarlari Ko'lamini yanada kengaytirish va ularning mazmunini chuqurlashtirishga bo'lgan intilishlariga mos kelardi.

Londondan kaytishda Gaydn Bonn shahriga tushdi, bu yerda u birinchi marta yosh Betxoven bilan uchrashdi. Bu uchrashuvdan key in Bejtxoven Gaydndan dars olish maksadida Venaga ko'chib o'tishga qaror qiladi. Ammo Gaydn mashg'u-lotlari yosh Betxovenni koniktirmaydi. Gaydn ikkinchi marta Londonga borishga tayyorgarlik ko'rardi va o'z o'quvchisiga yetarli darajada e'tibor qila olmadi.

1894 yilda Gaydn ikkinchi marta Londonga keldi. Bu yillarda kompozitor y ana oltita simfoniya yozdi. O'n ikkita simfoniya tashqil topgan turkum "London simfoniylari" deb nomlandi. "London simfoniylari" Gaydn simfonizmi rivojlanishini yakunlaydi. Uning iktidori eng yukori cho'kkiga erishdi. musiqa asarlarini tinglashga ulgurardi. Yosh jihatdan kattarak bo'lgan zamondoshi Gendeining oratoriyalari Gaydnda chuqur taassurot qoldirdi. Gendel musiqasining ta'siri shunchalik kuchli bo'ldiki, Venaga kaytgan Gaydn ikkita ~ "Dunyoning yaratilishi" va "Yil fasllari" nomli oratoriyalarni yozdi. Gaydn Gendelga taklid qilish yo'lidan bormadi. Uning oratoriyalari o'zgacha muammolarni kamrab oladi: Gendeining Injil kahramonlari o'rniga bu asarlarda inson baxti va hayot go'zaliigi tabiatning yorqin manzaralarida ifodalanadi. Gaydn oratoriyalarining musiqasi kelajakka ishonch va xushchakchaklik bilan yo'g'rilgan, "London simfoniylari" ruhi va musiqiy tili bo'yicha xaik musiqasiga juda yaqin.

"Dunyoning yaratilishi"ning syujeti juda oddiy va sodda. Oratoriyaning dastlabki ikki qismida dunyoning yaratilishi tangri huzurida hikoya qilinadi. Uchinchi va oxirgi qismlarida Odam Ato va Momo Havoning gunoh qilgunlariga kadar bo'lgan jannatdagi hayoti bayon etilgan.

Bu oratoriya kompozitor hayotligi davrida zo'r muvaffakiyat kozondi va uning shuhratini yanada oshirdi. 1812 yilda oratoriya Peterburgda Filarmoniya jamiyati konsertida ijro etildi. "Yil fasllari" oratoriyasini "Dunyoning yaratilishi" dan ham ahamiyatlirok asar deb tan olish kerak. "Yil fasllari" ofatoriyasi matni "Dunyoning yaratilishi" matni kabi van Sviten tomonidan yozilgan. Gaydn oratoriyalari ichida ikkinchisi nafaqat mazmuni, balki shakli jihatidan ham turfa xil bo'lib, unda chuqur insoniylik g'oyalari ilgari surilgan. Bu mehnatni, tabiatga bo'lgan muhabbatni, qishlok hayoti va sodda kalb go'zalliklarini sharaflavchi asar bo'lib, u Gaydnning falsafasi, tabiat manzaralari va patriarxal qishlok akidalarining bir butun ensiklopediyasidir. Buning ustiga uning syujeti Gaydnga yaxlitlikning juda bejirim va tugal, barkamol musiqiy g'oyasini yaratish imkoniyatini berdi.

"Yil fasllari" ning ulkan partiturasini yaratish keksayib qolgan Gaydn uchun oson kechmadi, u ish jarayonida ko'p hayajonlandi va tunlarni uykusiz

o'tkazdi. Musiqa shinavandasi, pomeschchik Karl Fyumberg bilan tanishuv Gaydn uchun ijobiy turtki bo'ldi. Fyumberg tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rlik va moddiy yordamdan rag'batlangan Gaydn awal kator torli triolari, keyin esa o'zining birinchi torli kvartetni ham yozdi; shundan so'ng tez orada yigirmaga yaqin boshqa asarlarini yaratdi. U Gaydnga to'kkiz yil davomida kompozitsiyadan atigi ikki marta dars berdi xolos. Bo'lajak kompozitoming. haqiqiy o'qituvchisi yo'q edi. Hayotning o'zi uning uchun haqiqiy maktab bo'ldi.

Gaydnning ovozi hasta bo'lib, xorda ashula ayta olmaganda, uni betakalluf ishdan bo'shatib yuborishdi. O'smir bola uchun muhtojlikka to'la, musibatli kun-lar, eng asosiysi - tinimsiz va matonatli mehnat kunlari boshlandi. Gaydn ashula va musiqadan dars bera boshladi, bayram kechalarida, gohida esa katta ko'chalarda skripka chalardi. Buyurtma asosida u o'zining birinchi bir nechta asarlarini yozdi. Ammo bularning hammasi tasodifan topiladigan mablag'lar edi. Kompozitor bo'lish uchun ko'p va matonatli mehnat qilish zarurligini Gaydn tushunardi.

Gaydn ko'p shug'ullanardi: klavikord va skripkada chalar, turli kompozitorlar ijodini o'rganar, asariar yozardi. Filipp Emmanuil Baxning kuy ifodaviyligi va ritmining erkinligi bilan ajralib turuvchi klavir sonatalari unda katta taassurot kol-dirdi. Keyinchalik F. E. Bax asarlarining ta'siri Gaydnning ilk asarlarida namoyon bo'ldi.

Gaydn nazariy asarlarni, xususan I. Mattezon va I. Fuks kitoblarini o'rgana boshladi. Venalik kizikchi logann Yozef Kurs bilan hamkorlik uning uchun foydali bo'ldi. Kurs o'sha vaqtda Venada qobiliyatli aktyor va kator hajviy asariar muallifi sifatida tanilgan edi. Kurs Gaydn bilan tanishgan zahoti uning iktidoriga yukori baho berdi va unga o'zi librettosini yozgan "Asmodey, yoki Yangi maymok jin" komik operas! (zingshpil)ga musiqa bastalashni taklif qildi. Gaydnning bu asarga yozgan musiqasi, afsuski bizgacha yetib kelmadi.

Gaydn mustaqil kompozitorlik faoliyatini boshlashdan oldingi o'smirlik ijodining so'nggi bosqichi italiyalik kompozitor va kapelmeyster, Neapol maktabi vakili Nikkolo Porpora bilan mashg'ulotlari bo'ldi. Gaydn unga jo'rnavoz sifatida

ishga kirdi, biroq bir vaqtning o'zida xizmatkor sifatida ham xizmat qilardi. Porpora bilan mulokot natijasida Gaydn kontrapunkt san'ati va general-bas (garmoniya) bo'yicha o'z bilimlarini tartibga keltirdi.

Gaydn hayoti va ijodida burilish kutilmokda edi. Uning moddiy ahvoli asta-sekin yaxshilanib, hayotdagi o'rni mustahkamlanib borardi. Shu bilan birga uning bekiyos ijodiy iktidori o'zining birinchi hosilini bera boshladi. Tahminan 1750 yilda Gaydn kichik messasi (Fa major)ni yozdi, bu asarda u nafaqat mazkur janrning zamonaviy uslublarini ajoyib tarzda ko'rsatdi, balki "quvnoq" cherkov musiqasini yarata olish imkomyatlarini ham yakkol namoyon qildi. Kompozitoming 1755 yilda yaratgan birinchi torli kvarteti muhim ahamiyat kasb etdi.

Klavir asariari orasida hozirgi kunda ham katta kiymatga ega Jbo'lgan va pedagogik hamda konsert repertuarlariga kirgan asi durdona asarlar mavjud.

Kompozitorning ilk klavir sonatalarida F. E. Bax sonatalarining ta'siri sezilib turadi. Gaydnning individual uslubi 80-90-yillarda yaratilgan klavir asarlarida namoyon bo'ldi. Gaydnning sonata turkumi uch qismdan iborat: sonata allegrosi, vazmin sur'at qism va rondo shaklida yozilgan jadal final. Ko'p sonli Gaydn sonatalari ichida mahobatli mi-bemol major (op.66), shodonlik va bolalarcha quvnoqlik ufurib turgan re major (op.30), lirik mi-minor sonatalarini ko'rsatib o'tish lozim.

O'zining jo'shkin birinchi qismi, raqssimon finali va fojiaviy tuyg'ularga to'la o'rta qismi bilan re major sonatasi ko'pda Betxoven musiqasining ta'sirchan sahifalarini oldindan tayyorladi degan fikrlar mavjud. Sonataning birinchi qismi sonata allegrosi shaklida yozilgan. Bosh partiya bolalar raqsini eslatadi. Oktava kuyiga sakrashlar bilan forshlaglar mavzuga quvnoq xarakter bag'ishlaydi:

Yordamchi partiya bosh partiya mavzusiga yaqin turadi; u ham shuningdek shodon hamda quvnoq xarakterlidir. Bu partiya dominanta tonalligi, ya'ni lya majorda yozilgan: Major va nomdosh minorning qarama-qarshi ko'yilishi, shuningdek ikkinchi pasaytirilgan bosqichda va kamaytirilgan septakkorddagi

passajlarga qaramasdan birinchi qismning umumiy xarakteri shodon va quvnoqligicha qolaveradi.

Ikkinchi qism bizni fojiaviy tuyg'ular dunyosiga olib kiradi: bunga minor ladi (mi minor) yordam beradi. Dissonansli to'xtamlar, pastga yo'nalgan sekundali ohanglar sonataning ikkinchi qismiga dramatik kayfiyat baxsh etadi: Final raqsona mavzularga kurilgan va rondo shaklida yozilgan. Refrenga keskin qarama-qarshi bo'lgan ikkita lavha bilan almashinib, asosiy mavzu-refren uch marotaba takrorlanadi. Birinchi lavha qat'iy, o'tkir, re minorda sadolanadi, ikkinchisi - nozik, yengil - sol majorda.

2 .Gaydn ijodida sonata simfonik uslibining rivoji

Gaydn simfonikijodining tavsifi Gaydn ijodiga janr ko'p kirraliligi xosdir. U yuzdan ortik simfoniyalar, ko'p sonli kamer ansambllar (kvartetlar, triolar), klavir uchun asarlar (sonatalar, variatsiyalar, rondolar), operalar (yigirma to'rtta), turli cholg'ular uchuri ko'plab konsertlar yozdi. O'zining simfoniyalarini Gaydn 50-yillar oxiridan 90-yilarning o'rtalarigacha yaratdi. Birinchi simfoniyalar Yevropa simfonizmining shakllanish davriga to'g'ri keladi va u Vena maktabi yetuk simfonizmining uslubiy asoslarini shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Keyingi simfoniyalar Motsartning barcha simfoniyalari yaratib bo'lingan va yosh Beethoven fortepiano sonatalari va kamer ansambllarida o'z simfonik tafakkuri tamoyillarini shaqilantirayotgan vaqtda yozildi. Gaydnning so'nggi simfoniyalari yetuk klassik simfonizmni namoyish etadi.

Gaydn ijodining ahamiyati shundaki, uning cholg'u musiqasida klassik sonata-simfoniya turkumi to'la va mukammal tarzda o'z ifodasini topdi. Turkumning hamma to'rt qismi, yagona badiiy g'oyaga birlashib, hayotning turli jabhalarini ifodalaydi. Turkumning birinchi qismi (sonata allegro) nisbatan dramatik, harakatchan. Ikkinchi qism (og'itir) - bu lirik kechinmalar, osoyishta o'ychanlik sohasidir. Uchinchi qism (menuet) bizni raqsona kayfiyat ichiga olib kiradi. To'rtinchi qism - finalda janr-turmush ibtidosi mavjud va u xalqchil, raqsop-qo'shiq musiqasiga yaqin turadi.

Gaydn simfonik ijodining evolyutsiyasi bizga XVIII asr klassik simfonizmi kanday shakllanganligi va rivojlanganligini tushunish imkoniyatini beradi. Gaydnning ilk simfoniyalari ko'ngil ochuvchi-turmush janrlari doirasida yozilgan bo'lib, u o'sha davrda yaratgan kamer musiqasidan hech narsasi bilan farq qilmaydi. Raqsop kayfiyatdagi qismlarni bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilishi bilan bu simfoniyalarda syuita bilan o'xshashlik kuzatiladi. 70-yillarda "Motam simfoniyasi" va "Xayrlashuv simfoniyasi" paydo bo'ldi, ularda chuqurroq obrazlar dunyosi ifoda etilgan. Gaydnning keyingi yetuk simfoniyalari kabi bu simfoniyalar yaxlit asar bo'lib, o'zining xarakteri bo'yicha to'rtta qismdan tashqil topgan, ular bir butun obrazlar doirasining turli bosqichlaridir. Gaydn simfonizmining yuksak

yutug'i-90-yillarda yaratilgan o'n ikkita "London simfoniylardir. Bittasi (do minor) dan tashkari barcha simfoniylar major tonalligida yozilgan va yorqin, quvnoq hamda hayotbaxsh musiqa namunalaridir.

Do minor simfoniyaasidan tashqari barcha "London simfoniylarining xususiyati shundaki, ular tantanali-ulug'vor qisqa muqaddima bilan boshlanadi; so'ngra esa muqaddimadan farq qiluvchi sonata allegrosi keladi. Conata allegrosining asosiy mavzulari (bosh va yordamchi (yondosh) partiya) xalkchil raqsbop-qo'shiq xarakteriga ega. Turlicha matnga ega bo'lgan ushbu mavzular, o'zining musiqiy tabiati va obraz tuzilishi bilan o'zaro o'xshashdir. Bunda mavzularning tonal ziddiyatlari ham ajralib turadi: bosh partiyaning asosiy tonalligiga yordamchi partiyaning dominantali tonalligi qarshi qo'yiladi

SHunday qilib, Gaydn ijodiy xayoti tabiiy ravishda uch davrga bo'linib ko'riladi, shu bilan birga uchinchi davri hammadan ko'ra muxim va salmoqli bo'lib xisoblanadi: Mana shu uchala davrni quyidagicha ta'riflash mumkin: knyaz Estergazi xizmatiga kirguncha utgan badiiy shakllanish yillari (1751—1761), knyaz Es-tergazida kapelmeyster va kompozitor bo'lib ishlagan yillari (1761—1791), xayoti va ijodining so'nggi yillari — yo'qsak badiiy maxorat davri (1791 —1809).

Yosh Gaydnning badiiy jihatdan yetilib borishidagi keyingi muhim davr uning cherkov xorida — avval Dunay bo'yidagi Gaynburg shaxrida, so'ngra Venadagi avliyo Stefan jomesida ishlashi bilan bog'langandir. Xor repertuarida o'tmish asrlardagi Avstriya, Niderlandiya va Italiya kompozitorlarining polifonik uslubda yozilgan ko'pdan-ko'p diniy asarlari bor edi; shularning orasida «qat'iy uslubdagi» kontrapunkt san'atining shohona asarlari ham bo'lgan (Orlando Lasso, Palestrina xorlari va boshqalar). SHunday qilib, Gaydn qadimgi ustozlarining asarlarini ijro etishda bevosita ishtirok etib, polifonik san'at sirasrorlarini amalda bilib oldi.

Avliyo Stefan jomesidan tashqarida Gaydn syuita strukturasidagi divertismentlar va qo'shiqlarga o'xshab yangraydigan raqslarni xalq

musiqachilari ijrosida eshitar edi. Venadagi xonadonlarda musiqa chalib, vaqtichog'lik qilishda bo'lg'usi valsning o'tmishdoshi, uch hissali avstriycha xalq raqsi — Lendler Allegro, Andante va fugadan iborat. Bu qismlarning hammasi intonatsiyalari va mavzularining birbiriga yaqinligi bilan o'zaro bog'langan. Birinchi qism bosh va yordamchi partiyalari kontrast va dinamik rivojlovga ega bo'lgan sonatali allegrosidan iborat. Mazkur simfoniya klassik oldi simfonizmining eng ko'zga ko'ringan namunalardan biridir. Micha ijodi ham, xuddi «iloxiy chex» nom olgan Yozef Mislivechk (1737—1781)¹ asarlari singari XVIII asr Evropa cholg'u musiqasi tarixida juda katta rol o'ynadi.

Klassik simfonizmning qaror topishida Germaniyaning Mangeym shaxrida ishlagan va «Mangeym maktabi» deb yuritiluvchi simfoniya maktabini yaratgan chex ustozlarining roli buyo'qdir. Ko'pdanko'p saroy orkestrlari orasida Mangeymdagi kurfyurst Pfaltskiy kapellasi eng yaxshi kapella deb nom chiqargan edi. Unga chex musiqachilari — skripkachilari, kapelmesteyrlari va kompozitorlari boshchilik qilishardi. Mangeym maktabining asoschilari Yan Vitslav Antonin Stamits (1717—1757) va Frantsi-shek Ksaver Rixter (1709—1789) bo'ldi; YAn Stamitsning o'g'illari — Karel Stamits (1746—1801) va Antonin Stamits (1754—■ taxm. 1820), shuningdek Xristian Kannabix (1731 —1798) va boshqalar ularning izdoshlari va davomchilarn bo'lishdi.

Mangeym kapellasining ijrochilikdagi ajoyib fazilatlari to'g'risida o'sha zamondagi ko'pgina kishilar zavqranib gapirishdi. Shoir va kompozitor F. Shubert (1739—1791) mana bunday deb yozgan edi: «Mangeym orkestri ijroda ko'rsatib beradigan maxoratga jaxondagi xech bir okrestr mutlakr etgan emas. Uning fotre-sini—momaqildiroq, crescendo sini sharshara, diminuendo sini— tip-tiniq bo'lib okryotgan soy suvining olis-olislarda bilinmay ketadigan shildirashi, painosini — baxrt shabadasi deysiz». O'sha

¹ Iozef Mislivechk k,alamiga simfoniya kamer asarlarga emas, balki talaygina operalar xam mansubdir. Uning tugrisida M. SH a g i n ya n n i n g «Iozef Mislivechk». M., 1968 kitobiga k.aralsin.

zamondagi ko'pgina kishilar Mangeym orkestrining mashxur crescendo lari tinglovchilarda haddan tashqari zo'r taassurot uyg'o-tardi, deb dalolat berishgan. Mangeym maktabining ahamiyati shundan iborat bo'ldiki, yangi tipdagi klassik orkestrni to'la-tukis va o'zil-kesil rasm qildi — basso continuo printsiplarga asoslangan (albatta klavesin yoki organ ishtiroki bilan ijro etiladigan) eski orkestr uslubi bar-bod etildi. Ravshanki, Mangeym orkestrining tarkibi xozirgi zamondagi orkestrlarnikiga qaraganda hali juda kichik edi; biroq, orkestrning gruppalariga — torli, puflama (yog'och, mis asbob-lar) va urma sozlar gruppasiga ro'y-rost bo'linganligi (bunda orkestr pedalining roli eski basso continuo dagiga qarshi udaroq, puflama asboblarga berilar edi) klassik orkestr parti-turasiining muxim bo'lib qolganligidan darak beradi. Yan Stamits tomonidan belgilangan orkestr tarkibiga: 30 ta torli asbob, 2 ta fleyta, 2 ta goboy, 2 ta fagot, 2 ta truba, 4 ta valtorna, litavra-lar kirar edi. Mangeym simfonistlari orkestrga birinchi marta klarnetni kiritishdi.

Gaydnning muvaffaqiyat bilan qo'yilgan «Oqroq iblis» asari ijodiyotining ilk davrini (1751 —1761) boshlab bergan dastlabki saxna asari bo'ldi. Zingshpil musiqasi saqlanib qolgan emas, lekin kompozitor unda yoshligidan o'ziga juda tanish bo'lgan turmushga oid avstriycha xalq musiqasining xususiyatlarini ifoda qilib ko'rsatgan deb ishonch bilan aytish mumkin.

3. Frans Yozef Gaydnning “Xayrlashuv simfoniyasi”

Gaydnning «Xayrlashuv simfoniya»si Motsartning 25- g-moll Simfoniyasi bilan deyarli bir vaqtda yozilgan (1773). Bu ikkala simfoniya musiqasining tabiatan bir-biriga juda yaqinligi, minor tonalligi, dramatik ta’sirchanligining zo’rligi mana shularning hammasi o’sha zamon simfonik musiqasida odatdan tashqari bo’lib xisoblangan shu xildagi asarlarning yaratilishida shaxsiy motivlardan tashqari ijtimoiy motivlar ham rol o’ynagan degan xayolga olib boradi. Bu «Bo’ron va xujum» harakati boshlangan davr bo’lib, shu davr san’atida insonning ma’naviy hayoti, mustabidga qarshi, ruhiy istibdodga qarshi noroziligi birinchi o’ringa qo’yilar edi.

60—70- yillarda Gaydn opera janriga ham murojaat etdi. Toldoni tekstlariga yozgan ikkita opera buffasi «Dorixonachi» (1768) va «Oy jaxoni» (1777.) aloxida ajralib turadi.

Londonga birinchi bor safar qilish bilan Gaydn ijodining uchinchi, so’nggi (1791 —1809) davri boshlanadi.

O’sha zamonlarda ilg’or kapitalistik mamlakat bo’lmish Angliya poytaxtida Gaydn o’ziga avval tanish bo’lmagan yangi sharoitga duch keldi. Londonda savdo va sanoat tashqilotlari hamda burjua-korcholonlarning muassasalari juda ko’p bo’lib, bu kontsert xayotiga ham ta’sir etgan edi: bu erda oqsuyak aslzodalarning saroy va salonlarida bo’lib turadigan yopiq kontsertlar bilan bir qatorda, birmuncha katta zallarda hamma kirs bo’ladigan pulli kontsertlar ham uyushtirib turilar edi. Gaydnga Londonda o’z sim-foniyalariga dirijyorlik krlishni taklif etgan antreprenner va skripkachi Peter Salomonning kontsertxonasi ham ana shunakr edi. Londonda Gaydn 40—50 kishidan iborat orkestrni boshqarib bordi. Mana shu yangi shart-sharoitlar Gaydnning ijodiy makradlariga mos kelar edi.

London simfoniyalari xrr jihatdan olganda ulug kompozi-torlarning simfonik musiqa soxreidagi ijodiy yo’lining eng yo’qsak nuqtasi va ajoyib yakuni bo’ldi. Xayotiy zo’r mazmunga to’lib toshgan bu simfoniyalar

dunyoga kelganiga bir yarim asrdan oshgan bo'lsada, xozir ham o'z musaffoligini yo'qatgan emas.

Londonda Gaydn Gendel oratoriyalarini tingladi, bu oratoriyalarni vaqt-vaqtida ijro qilib turish u erda odat tusiga kirgan edi. SHu oratoriyalar taassuroti ostida Gaydn Venaga qaytib kelgach, yangi kvartet, trio, sonata, messa va qo'shiklar bilan bir qatorda ikkita monumental oratoriya — «Olamning yaratilishi» (1798) va «Pil faellari» (1800) yaratdiki, bular uning so'nggi yirik asarlari bo'ldi. «Olamning yaratilishi» oratoriyasi garchand qadimgi Ahd syujetiga yozilgan bo'lsada, bibliyada tasvirlangan qaxramonliklar Gaydnni kam qiziqtirar edi. Ikkala oratoriyaning asosiy mazmuni (ular bir-biridan har qancha farq Qilmasin) yorqin tabiat manzaralari qo'ynida insonning rohat va farog'atda yashashini ideallashtirilgan tarzda tasvirlashdir. Oratoriyalar juda zo'r muvaffaqiyat qozondi va birinchi bor Venada ijro etilgan bo'lsada, dovrug'i undan tashqariga, ancha o'zovda yoyildi. «Olamning yaratilishi» oratoriyasi 1802 yili Peterburgda Filarmoniya jamiyati kontsertida yangradi.

Gaydn xayotining so'nggi yillari ijodiy sukutda o'tdi. Bu haddan tashqari zo'r ijtimoiy larzalar zamoni edi. Frantsuz revolyutsiyasi bo'lib o'tdi; Napoleon Bonapart armiyalari Evropaning hamma yog'ini izgib chiqishdi. Mana shularning hammasi o'zining olgan tarbiyasi jihatidan, o'rganishlari va dunyoga qarashlari jihatidan boshdan-oyoq o'tmish XVIII aerga mansub bo'lgan Gaydnni cho'chitar edi. Gaydn Venada 1809 yili vafot etdi.

Ijtimoiy hayot shart-sharoitlari o'zgarib qolganligi munosabati bilan kompozitorlar oldida yangi goyaviy vazifalar ko'ndalang bo'lib turib qoldi. Va bularni hal qilish kelgusi avlodlar zimmasiga tushdi. Endi revolyutsion zamon oldinga surgan yangi-yangi idellarni o'z ijodida aks ettirgan qudratli Betxoven dahosi zohir bo'ldi. Romantizm tongi otib kelayotgan edi. Qarib, munqillab qolgan, badiiyotdagi o'z vazifasini ado etib bo'lgan edi.

Ilk simfoniyalari orasida 1772 yili yozilgan va mazmuni, obrazlarining doirasi jihatidan ham, kompozitsion tuzilishi jihatidan ham keskin ajralib

turadigan «Xayrlashuv simfoniyasi» alohida diqqatga sazovordir. Simfoniya tsiklga xos to'rtta qism o'rniga bu simfoniya beshta qism bo'lib, so'nggi qismi (Adagio) muayyan va g'alati bir maktad bilan qo'shimcha qilib kiritilgan: uni ijro etish paytida, Gaydn rejasiga ko'ra, sozandalar navbati bilan shamlarni o'chirib, o'z asboblari yig'ishtirishlari va chiqib ketishlari kerak edi, avvaliga birinchi goboy bilan ikkinchi valtorna, so'ngra ikkinchi goboy bilan birinchi valtorna chiqib ketar edi va hokazo; simfoniyaning ikkita skripkachi poyoniga etkazar edi². Bu aftidan, simfonik tsiklning vazmin sur'atli xotima bilan tugallanishiga birinchi misoldir.

«Xayrlashuv simfoniyasi»da ilk simfoniyalarga xos bo'lgan kp'ngil ochar divertissement musiqasiga endi o'rin qolgan emas. Unda Motsart va hatto Betxoven musiqasining xryajonga soluvchi saxrfalariga yaqin turadigan xryajonli-ta'sirchan obrazlar Hukmronlik qiladi (ayniqsa, birinchi va turtinchi qismlarida). XVIII asr simfonik musiqasida g'oyat darajada kam uchraydigan fis-moll tonallik ham diqqatni o'ziga jalb qiladi. (Gaydnning simfoniylarida ham major tonalliklar ruy-rost ustun turadi.)

Simfoniya tsiklining yaxlitligini ham ko'rsatib o'tish keraq— bu narsa ayrim irlsmlar mavzu jixatidan bir-biriga bog'likligi bilan ham, birinchi va to'rtinchi qismlari musiqasining tabiatan va ruhan bir ekanligi bilan ham ifodalanadi. Birinchi qismi (sonata allegrocn), ayniqsa uning fis-moll-dagi asosiy mavzusi dramatik ta'sirchanlik va hayajonga to'la. Gaydnning xuddi ba'zi boshqaa simfoniylarida bo'lgani kabi bosh va yordamchi partiyalar bu o'rinda ham bitta mavzu materiali asosida tuzilgan (55- misol).

Birinchi qism ekspozitsiyasining XVIII asr musiqasida kamdan-kam uchraydigan tonal plani o'ziga xosdir: yordamchi partiya a-mollda, yakunlovchi partiya esa cis-moll da yangraydi. fis-moll uchtovush-ligi (simfoniyaning asosiy tonalligi) bo'yicha joylashgan minor tonalliklar tertsiyali zanjiri yuzaga keladi. Bunda uzoq kelajakka oldindan yo'l ochib

² «Xayrlashuv simfoniyasi»ni xozir ham xuddi shu tariqa ijro etish odat bo'lgan. SHu munosabat bilan uning xotimasi to'g'risida bir afsona to'qirganki, xozir bu rad etiladi. SHu afsona mana bunday: knyaz Estergazi o'zining yozgi qarorgox.ida kapellani uzoq ushlab turib, sozandalarni dam oldirmaganmish, Orkestr sozandolari knyazga borib, o'zlari uchun harakat qilib ko'rishni Gaydn dan irtimos qirishganmish. SHunda Gaydn o'sha simfoniyaning yaratganmish, bu simfoniyaning sozandalar galma-galdan chiqib ketishadigan xotimasi knyaz uchun bir ishora bulishi kerak ekan.

berilganini kurmasdan iloj yo'q, shuning natijasida minor yoki major tonalliklarni go'zal tertsiya nisbatlarida olish romantiklar ijodida katta ahamiyat kasb etdi.

Rivojlovda yangi qo'shiq mavzui paydo bo'lishi ham «Xayrlashuv simfoniyasi» sonata allegrosining o'ziga xos bir tomonidirki, bu mavzu lirik kontrast beradi va shu ekspozitsiyasi (va, demaq reprizasi ham)da kontrast yo'qligini bilintirmay qo'ya-di (56- misol)

«Xayrlashuv simfoniyasi»ning ikkinchi, vazmin sur'atli qismi (Adagio) lirik qo'shiqsimon bo'lsa, uchinchi qismi — raqs (me-nuet)dir. Simfoniyaning ayrim qismlari mavzu jixatidan bir-biriga bog'langan deb yuqorida aytib o'tilgan edi. SHu jihatdan olganda menuet mavzusidagi pastlama tertsiya yo'llaridan iborat sekventsiyaga ahamiyat beraylik (57-misol) va uni ikkinchi qismning ikkinchi mavzusi bilan solishtirib ko'raylik (58-misol).

To'rtinchi qism xuddi Birinchi qism kabi sonata shaklida yozilgan va xarakterining hayajonli, jo'shqinligi bilan ajralib turadi; bu qismning shu harakterini bosh partiyaning mavzusi belgilab beradi (59-misol)



55-misol



56-

misol



57-misol

II 7



58-

misol



59-misol

Gaydnning London syuitalaridagi vazmin sur'atli muqaddimalar odatda undan keyin boshlanadigan Allegro bilan mavzu jihatidan bog'langan emas. Biroq istisnalar ham bor: Es-dur simfoniyasi № 103 «litavrlar tremolosiga ega» muqaddimasinint mavzusi o'zining asosiy ko'rinishida birinchi qism qodasida va boshqacha bir qiyofada rivojlovda yana bir bor namoyon bo'ladi (60-, 61-misollar).

D-dur simfoniyasi (№ 101, «Soat»)'ga muqaddima mavzusidan birinchi qism bosh partiyasining mavzusi yuzaga chiqadi (62-, 63-misollar). Gaydnning London simfoniylarining uchinchi qismlari hamisha «Minuetto» (Menuet) deb ataladi. Biroq, Gaydn nazokatli, takabbur ruxragi saroy axli raqsidan ancha nari ketdi. Gaydn simfoniylarining ko'pgina menuetlari qishloqcha raqslarning xarakterini kasb etib, qadami birmuncha vazmin, ohangi erkin aktsent va ritmik siljitmaları to'satdan keladigan, ko'pincha kulgili ta'sir ko'rsatadigan bo'lib qoldi.

Simfoniylardan tashqari Gaydn fortepiano, skripka, violonchel uchun, orkestr jurligidagi turli puflama sozlar uchun 50 ga yaqin kontsertlar yozgan. Odatda uch qismli tsikl (sonata allegro si, vazmin sur'atli qism, tez sur'atli xotima)dan iborat bo'lgan Gaydn kontsertlari yakka holda ijro etiladi va kontsert-simfoniya musiqasi printsiplarni o'ziga mujassam etadiki, bu narsa umuman shu janrga xosdir. Yakka sozning o'sha zamonda ko'ursatishi mumkin bo'lgan moxirlik va ifoda vositalaridan mumkin qadar ko'proq foydalanilgan.

Orkestrning yangrashi (ayniqsa tutti paytlarida, birinchi qism-larning orkestr ekspozitsiyalari va boshqalarda) jihatidan, ko'lami hamda mavzu materialini rivojlantirib borish usullari jihatidan olganda, Gaydnning ijodiy etuk davrida yozgan kontsertlari simfoniylaridan qolishmaydi.

Simfoniya va yakka soz kontsert janrlari Gaydn dan oldin ham mavjud bo'lgan, lekin Evropa simfonizmi endigina rivojlanib kelayotgan davrda Gaydn ijodi uning cho'qqilaridan biri bo'ldi.

Kamer va fortepiano ijodi. Kvartetlari, triolari, sonatalari, variatsiyalari.

Gaydn simfonik musiqa sohasida qanday rol o'ynagan bo'lsa, kvartet musiqasi janrida ham xuddi shunday rol o'ynadi, ya'ni cholg'u ansamblning bu janrini klassik kamolotga etkazdi. Gaydn 50- yillarning o'rtalaridan boshlab, butun ijodiy yo'li davomida kvartetlar yozdi. Lekin, ularning eng yaxshilarini u 80—90- yillari yaratgan.

Kvartet bo'lib uyda musiqa chalish vaqtchoglik qilishning ommaviylashgan turi edi. Mana shu ajoyib an'ana zaminidan unib chiqqan Gaydn kvartetlari uyda chalinadigan musiqaning shakllarini barqaror qilib berdi va buning turli Evropa mamlakatlarida keng tarqalishiga yo'l ochdi. Biroq, Gaydn kvartetlarining ahamiyatini uyda chalinadigan musiqa doirasi bilangina cheklab ko'yish to'g'ri emas ularning ahamiyati ancha katta. Gaydn kvartetlari musiqa mazmunining chuqurligi va yozilganligi hamda shaklining mukammalligi tufayli tor xonaki musiqa tur-mushi doirasidan tashqari ijtimoiy kontsert xayotida muxim rol o'ynadi.

Buni ham kuyavering, o'sha kvartetlar XVIII asr xonadon turmushida rasm bo'lgan musiqaga xos an'anaviy xususiyatlarga zid bo'lib turib qoldi.

Endi Gaydn kvartetlarida «nazokat»li deb atalmish uslub-ning tashqi bezaklari ham, salon musiqasining ko'rkamlik berish uchun to'qib chiqarilgan dabdabasi ham yo'q edi; bularda xalq raqs va xalq qo'shiqlarining oddiyligi va tovushlarning moxirona kontrapunktli ulanib ketishi juda ixchamlashtirilgan shakl bilan birga mujassam bo'lib boradi. Talaygina kvartetlariga xos sermavj quvnoklik g'urur va xalq yumori «musiqa qadrini tukish», «sho'xlik» deb bilgan ba'zi konservativ tanqidchilarning mazkur kvartetlarga yomon munosabatda bo'lishiga olib keldi. Biroq, Gaydnning kamer musiqasi uchun quvnoq gururning o'zigina xarakterli emas; uning kvartetlari har xil darajadagi kayfiyat ruhiyat hamda his-tuyg'ularni — ko'ngilga orom beradigan osoyishta lirikadan tortib, qayg'uli va hatto fojiaiy emotsiyalarni ifodalay olish xususiyatiga ega.

Gaydning novatorligi kvartetlarida, balki simfoniylaridagidan ko'ra ham ko'proq dadil bo'lib ko'rinadi. CHunonchi, birinchi skripka yuqori ovoz sifatida etakchi rol o'ynaydigan bo'lsa ham, keyingi kvartetlarda to'rtala sozning hammasi teng huquklidir: bosh va yordamchi partiyalar materialini bayon qilishda sozlarning Hammasi faqat rivojlovlardagina emas, balki ekspozitsiya va repriza bo'limlarida ham ishtirok etadi. Masalan, C-dur (№ 32) kvartetida bosh partiya mavzui uni birinchi bor ijro etishda vio-lonchelga xavola qilinadi (77-misol), g-moll (№ 33) kvartetida bosh partiya mavzui birinchi skripka bilan alt partiyalarida oktava intervalida yangraydi (78-misol).



78-misol



Operalari va oratoriyalari

Gaydn qalamiga 24 ta opera mansubdir. Bular kompozitorning eng yaxshi yutuqlari jumlasiga kirmaydi; cholg'u musiqasi sohasida o'zini erkin va engil xis qilgan Gaydnning zarur komponentlari so'z va dramatik sohaadan iborat bo'lgan operaga rag'batini yo'qroq edi. U asosan knyaz Estergazi saroyida bo'lgan har xil tantanalar (tug'ilgan kunlar, qabullar, yubileylar, nikoxlar va boshqalar) munosabati bilan qo'yiladigan spektakllar uchun operalar yozdi va ularni Estergazi mulkidan chetga tarqiladi, deb

o'ylamadi. Biroq, Gaydnning ba'zi operalari Avstriya va Germa-niyaning turli shaxrlarida qo'yilgan bo'lsa-da ular sovuq kutib olingan edi.

1762 yil bilan 1783 yil o'rtasida yaratilgan Gaydn operalari asosida Goldoni, Metastazio va uncha mashhur bo'lmagan hamda el og'ziga ko'p tushmagan boshqa XVIII asr shoir va dramaturglarining italyancha tekstlari yotadi. Operalarining eng ko'p qismi italyan opera buffa an'analarida yozilgan (masalan, «Dorixona-chi», «Baliqchi xotin», «Aldangan xiyonat», «Oy jaxoni», «Ku-tilmagan uchrashuv», «Asl vafodorlik»), biroq opera seria-lari dam bor («Atsis», «Armida»). Londonga atalgan «Orfey va Evridika» (1791) operasi boshqalaridan ko'ra keyinroq yaratilgan.

Gaydn operalarining musiqasi uning o'zi yozgan cholg'u asarlariga qaraganda ancha orqada turadi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga mansub nemis kompozitori I. F. Reyxardt bu to'rida mana bunday deb yozgan edi: Gaydnning cholg'u musiqasini afzal deb bilar ekanman, uylaymanki, eng zo'r tanqidchilar bunga qushilishadi. Aftidan, uning iste'dodi vokal musiqada so'zlar bilan qisilib qoladi. Ovozlar uchun uning asarlar yozish uslubi ko'pgina xonandalar ko'ngliga yoqmaydi. Teatr — uning ishi emas. Biroq, kompozitorning ba'zi hajviy operalari (jumladan, «Dorixonachi») qiziqish uygotadi va teatrlarning diqqatini o'ziga albat etadi. Gaydnning vokal asarlari jumlasiga messalar (jumladan, Ildmiral Nelson sharafiga yozilgan messa) va «Stabat mater» kiradi. Bu asarlar musiqasi to'la-tukis dunyoviy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi, ba'zan ancha kuchli drammatizm darajasiga kutariladi va cherkovdan ko'ra kontsert zali sharoitiga ko'proq mos keladi.

Mangeymlik ustozlarning simfoniylari umumlashtiradigan va odamning distuyrulari hamda ruxiyatiga ta'sir qiladigan kuchi jihatidan atoqli simfonistlar ijodini xarakterlab beradigan darajaga hali etmagan, ularda o'zigagina xos bo'lgan yorqin qiyofa hali yo'q edi; lekin ular Vena klassik maktabida simfonik musiqa madaniyati ravnaq topishi uchun zamin tayyorlab berdi hamda Gaydn va ayniqsa Motsart ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Gaydnning vokal asarlari orasida dastlabki o'rinlarning birini oratoriyalar egallaydi. 70- yillardayoq

Gaydn «Toviyning krytishi» oratoriyasini yozgan edi. Biroq, shu janrdagi eng ajoyib, monumental asarlar ijodiy yo'lining oxirida yozilgan: bular «Olamning yaratilishi» (1798) va «Il fasllari» (1800) nomli ikkita katta oratoriyalardir.

Bular mazmunining asosida insonning gullab-yashnayotgan tabiat kuchlari qo'ynida shod-xurram va baxtiyor yashashi goyasi yotadi. SHuning uchun Gaydn oratoriyalarida turmushga oid janr elementlari va tasviriylk katta rol o'ynaydi.

«Olamning yaratilishi» oratoriyasi Jon Miltonning «Iukr-tilgan jannat» dostoni syujetiga yozilgandir, bu doston syujeti ;o'z navbatida olamning yaratilishi to'g'risida Bibliyadagi mashxur afsonadan olingan (librettosini baron van Sviten ismli Vena mansabdori yozgan).

Oratoriya uch qismdan iborat: dastlabki ikki qismi jonsiz va jonli tabiat (osmon, yuldo'zlar, suv va quruqliklar, usimlik-lar, xryvonlar va odam)ning birma-bir yaratilganligini bayon qiladi; uchinchi qismi ilk insonlar odam Ato va Momo Havoning erdagi jannatda baxtiyor va orombaxsh hayot kechirganini tasvirlaydi. Oratoriya tekstida tangri sha'niga aytiladigan hamdu sano ko'p bo'lishiga qaramay, musiqasi juda quvnoq bo'lib, dunyoviy xalqchil xarakterga ega va London simfoniylari bilan kvartetlariga o'xshab ketadi. Undagi asosiy narsa hayotbaxsh kuch shiralariga tulib borayotgan qudratli tabiatni, shuningdek Odam Ato bilan Momo Havo obrazlarida ideallashtirilib tasvirlangan inson baxt-saodatining eng oliy nushasini tarannum etishdir.

Oratoriyada aksari sodda ko'rinsa ham, yorqin programmali tasviriylk ko'p. CHunonchi, oratoriyaiing orkestr muqaddimasining o'ziyoq olamda yar'atuvchanlik boshlanmasidan ilgari xukm surgan boshboshdoklikni tasvir etadi. Ladni notayinga uxshatib ko'rsatuvchi xromatizmlar, dissonansli tuxtamalar tonal ogish-malarning mul-kulligi,— mana bularning hammasi musiqaga shunday bir badixali erkinlik beradiki, buni mazkur holda

Gaydnning allaqanday betartib, uyushmagan bir narsani tasvirlashga zo'r berib o'ringani bilan izoxrash mumkin (84-misol).

Oratoriya boshida lad (S-to11dan keyin C-dur keladi) bilan dinamika (pianissimo-dan keyin fortissimo keladi) ning tusat-dan o'zgarib krlishi zulmat va yaraqlab porlagan nur kontrastini hosil qiladi (xorning: «Gospod skazal: «Da budet svet!» I bil svet»— «Tangri: «Nur bo'lsin!» deb amr

The image shows a musical score for a choral piece, specifically measures 84 and 85. The score is written for piano and organ. Measure 84 is marked 'Largo' and includes dynamic markings like 'f' and 'p'. Measure 85 includes the Russian text 'Господь сказал: "Дабудет свет!" и был свет.' and dynamic markings like 'pp' and 'ff'. The score is in G major (one sharp) and 4/4 time.

qildi. Va nur bo'ldi!» degan so'zlariga) (85- misol).

Tasviriylikka boshqa misollarni ham keltirib o'tish mumkin (suv okrmlari, arslonning o'kirishi, yulbarsning sakrashi, ki-yikning yug'urishi, otning kishnashi, chuvalchang qurtning o'rmalashi), lekin farq faqat shularda emas. «Olamning yaratilishi» aratoriyasi musiqasidagi muxim narsa tabiatning

gullab-yashnayotganini, qudrati va go'zalligini shodu xurramlik bilan tsarshilib oluvchi insondir.

«Yil fasllari» oratoriyasi ham ingliz yozuvchisi Jeyms Tomsonning shu nomli dostoniga asosan baron van Sviten tomonidan yaratilgan librettoga yozilgandir. Bu oratoriyada qishloqdagi dexqonlar hayoti, dala ishlari, utloq va urmonlarning go'zal man-zaralari tasvirlanadi. Oratoriyada yilning fasllariga yarasha to'rtta qism bor: «Baxt», «Yoz», «Kuz», «Qish». Rejasi va uslubi umuman bir bo'lgani holda, xrr bir kixmi o'z xarakteri, o'z kol-ritiga ega. Xuddi «Olamning yaratilishi» oratoriyasida bo'lga-dek bu o'rinda ham tovushnavizlik ko'p: momaqaldiraq, ov, xo'roz qrchqirig'i, baliqralarning shaloplashi, baqilarning vaqillashi, chigirtkaning chirillashi va boshqa ovozlarni musiqada tasvirlash shular jumlasidandir. Biroq, tasviriylk asosiy narsani to'sib qo'ymaydi: oratoriyaning boshdan oyog'i inson mexnatini sharafllovchi ilxombaxsh madxiyadir; odamlar baxtu saodatini va hayotning ma'nosini mexnatda topishadi; mexnat bilan undirilgan nozu ne'mat yayrab xursandchilik qilishga vaj bo'ladi.

Oratoriyaning asosiy g'oyasi xalq-dehqonlar turmushiga oid mavzuda bo'lgan, quvnoq mavj urib turadigan Gaydn musiqasining obrazli tuzilishida to'la ifodasini topadi. Yakunlovchi nomerlarida falsafiy g'oya mavjud: yil fasllari qay tariqa birbiri bilan almashinib boradigan bo'lsa, inson xayotida ham usmirlik (baxrr), navqironlik (yoz), etuklik (ko'z), qarilik (qish) pallalari xuddi shunday navbatlashib boradi. Muqarrar nihoya vaqti keladi. Biroq, xayotning qadriga etib yashash insonga baxt-saodat keltiradi.

Dexqonlar hayoti bu asarda qishloq ahli, dehkonzchilik qiluvchi kishilar va ovchilarning xori hamda uchta yakkaxon xonanda, qari dehqon Simon (bas), uning qizi Ganna (soprano) va Gannani sevib qolgan yosh dehqon yigit Luka (tenor) partiyalari bilan ifodalanadi.)har bir qismning orkestr muqaddimalari katta rol o'ynadi, bularda kompozitorning programma izoxlari bor.

CHunonchi, birinchi qismi («Baxrr») ning muqaddimasida Gaydn: «Muqaddima qishdan baxorga o'tishni tasvirlaydi» deb qayd qilib o'tgan. Bu — sonata allegro-si (Vivace sur'ati) shaklida yozilgan yorkrn simfonik manzaradir, uning turt taktli

ulugvor kis-Kacha muqaddimasi (Largo) mavjud. Mustahil yakunlovga ega bo'lmagan va birinchi rechitativga ulanib ketadigan vivace bexalovat, dramatik xarakterga ega — porloq baxrt hali qaror topgan emas, bo'ronli va izg'irinli qattiq qish nafasi hali sezilib turibdi. Minor (g-moll)ladi, tez sur'at, bot-bot kelib turadigan ladtonal o'gishmalar, kamaytirilgan birtalay garmoniyalar yordami bilan ana shunday xarakter vujudga keltiriladi. Bosh partiya mana shunaqa (86-misol).



Bosh partiyaga ohangdosh bo'lgan yordamchi partiya major (B-dur) ladi bir qadar mayin dinamikasi, aniq orkestrrovkasi, tonal turg'unligi tufayli

88



Ikkinchi qism («Yoz») ning qisqa muqaddimasi Gaydnning o'zi aytib o'tganidek «tong sahar yaqinlashib qolganini tasvir-laydi» (88-misol).

Vazmin sur'at, kuyning xuddi to'siqrarni bosib o'tgandek salobatli, pog'onama-p'ogona ko'tarilib borishi, xromatizmlar, xromatik tovushlardagi sforzando aktsentlari bilan to'xtalib o'tishlar — mana shularning hammasi tun zulmati tarqalmay turgan,. quyosh nurlari tumanni yorib, arang utayotgan va hali odam tetik: holga kelmagan palla manzarasini beradi.

Oratoriyaning ikkinchi qismi umuman olganda tugallangan, aloxida bir fikrni: qishloqqa subxrdamdan to oqryum tushguncha davom etuvchi yoz kunini tasvirlaydi.

Uchinchi qism («Kuz»)ning muqaddimasi «dalalardan mo'l-ko'l hali yig'ib-terib olgan dexqon shodligini» tasvirlaydi. T-biatan xalqchil musiqa quvonchi his-tuyg'ular jahoniga olib kiradi va butun qism koloritini belgilab beradi (89-misol)..

89



«Kuz»— oratoriyaning eng sho'x va xushchahchaq qismidir. Bu barglar sarg'ayib, daraxtlardan to'qiladigan, tinmay yomg'ir yog'adigan, kunlar endi kerak bo'lib, qish sovuqlarining nafasi bilinib qoladigan hazin bir yil fasli emas. yo'q, Gaydn oratoriyasida bu don-dunlar yaxshi xosil berib, meva-cheva va uzum: mo'l bo'lgan, o'rmonda ov baroridan kelgan, xosil to'yi sharafiga bayram qilinadigan ilk «oltin» kuzdir. SHuning uchun muqaddimasi ham shu qadar shux xarakterga ega.

To'rtinchi qism («Qish»)ning orkestr muqaddimasi oldingi barcha qismlarga kontrast bo'lib, «yaqinlashib kelayotgan qish tu-manlari bilan zimistonini» tasvirlaydi. Mazkur muqaddima mungli, ma'yus xis-tuyg'ularga to'la, bu — minor (C-moll)ladi, vazmin sur'at, pastlanib boradigan sekundali «xo'rsinuvchi» in-tonatsiyalar, tuxtalmalar, xromatizmlar bilan ifodalanadi (90- misol).



Bu bir xildagi, zerikarli qish manzarasining odam ko'nglida paydo qiladiigan g'amgin kayfu ruxiyatni ifoda etish, ya'ni ko'ri-nishlar, manzaralarni psixologik kechinma bilan payvasta qilib borish tabiatni tasvirlashning o'zidan ko'ra ko'proq muximdir.

Oratoriyadagi xorlar xilma-xil, ularning paydo bo'lishi va xarakterini xar bir qismning umumiy koloriti ham, dramaturgii rivojlovining dinamikasi ham belgilab beradi. Ularda tasviriy tafsilotlar ham ko'p.

Oratoriyaning birinchi qismida dexronlarning xori xorovod kushiq ruxidagi musiqa bilan baxorni qutlaydi (91-misol).

Gomofonli taxlitda yozilgan to'rt ovozli bu xor polifonik bayon elementlarini o'ziga mujassam etganki, bu — bir xildagi so'zlarni kuylovchi ayrim ovozlarning turli vaqilarda sado be-rishi bilan ifodalanadi. Mana shunday usul xor fakturasiga tiniqlik va aniqlik beradi. SHu bilan birga xordagi xar xil ovozlarning xarakatchanligi hamda oxangining mazmundorligi, xor partiyasi ham, xor ovozlarni kuchaytiradigan orkestr partiyasi ham akkordlar taxlitida to'zilganligi taronaga tig'iz, to'la bir sado baxsh etadi.

Bu xorning quvnoq lirikasi keyingi xorlarda kuchayib, tobora zo'rayib boradigan shodonlik xayajoniga aylanib ketadi.

91

мерт-вен-но - го сна про-су-лась вся зем-ля!

сна, от смер-ти сна

sf *p*

Tabiat jonlanib, darrandayu parrandalar va qurt-qumursqalar yorug' jaxon va oftobdan odamlar bilan- birga sevinishadi. Mana shularning hammasi to oratoriyaning birinchi qismini yakunlovchi qudratli xor fugasigacha xonandalar ishtirok etadigan "xor no-merlarida yorqin bo'yoqlar bilan, zo'r ifoda kuchi bilan tasvirlab berilgan. Intervallarining keng va ritmining shaxdamligi tufayli fuga mavzusi ulug'vor xarakterga egadir; bu o'rinda hamma narsa shodu xurramlikka, barq urib turgan qudratli xayot kuchla-riga tulib-toshgan (92- misol). Ikkinchi qism («Yoz»)ning xorlari orasida quyoshga madhiya va «Momakaldiraq» xori ajralib turadi. Gaydn erni yorqin nur-bilan yoritadigan kuyoshning asta-

sekin chiqib kelishini sodda, lekin haddan tashqari ma'nodor vositalar bilan tasvirlaydi (№ 12).

Vokal partiyalarda va orkestrda xromatik tarzda yuqri kutarilib boruvchi intonatsiyalar paydo bo'ladi, tonallik va tovushlar balandligi tinmay ko'tarilib boradi (asosiy D-dur tonal-'likdan fis-moll, G-dur, a-moll, n-moll ga o'tish va D-dur ga qaytish). Ovozlar soni asta-sekin ko'payib, umumiy sadolar piano-dan fortissimogacha zo'rayib boradi. Mana shularning hammasi quyosh ni sharaflab, xor va uchta yakka xonanda tomonidan ijro etiladi-gan kudratli va shodiyona madxiyaga bevosita utib ketadi (93- misol). «Momaqildiroq» xori simfonik ko'lamlarga etib qiladiigan yorqin tasviriyl manzaradir. Undan oldin unga kontrast bo'lib tushadigan lavxa — Simon, Luka va Ganna rechitativi bo'lib o'ta-di, bunda momaqildiroq oldidan tabiatdagi sukunat tasvirlanadi.

XULOSA

SHunday qilib, atrofdagi musiqali xayotning eng muxim va kerakli tomonlarini o'zlashtirib olish Gaydn ijodiyoti dastlabki davrining eng asosiy natijasi mana shu bo'ldi. U yaratgan kvartetlar bilan simfoniyalar kompozitor ijodiyotining asosiy yo'nalishini belgilab berdi va cholg'u tafakko'rining xarakterli xususiyatlarini endi o'ziga mujassam qilib oldi.

Gaydn ijodiy faoliyatining ikkinchi davri knyaz Estergazn saroyida kapelmeyster va kompozitor bo'lib ishlashi bilan bog'liq (1761 —1791). Estergazi degan Venger zodagonlarining nomi faqat Gaydn tarjimai xrlidagina emas, balki boshqa buyo'q kompozitorlarning tarjimai xollarida ham uchraydi.

Gaydn garchand operalar kam yozgan bo'lsada, lekin ijodida cholg'u musiqasi xar qalay kattaroq ahamiyatni kasb etdi u Vena maktabiga mansub klassik cholg'u musiqasi asarlari ijod-korlarining biri bo'ldi. Va bu jixatdan uning kvartet bilan simfoniya soxrsidagi ishi hammadan muxim ahamiyatga egadir. 1755 yili Gaydn zo'r musiqa ixlosmandi, o'qimishli kishi—Fyurnberg degan pomeschchik mulkidagi musiqa to'garagining qatnashchisi bo'lib qoldi. Tez-tez kvartet kechalari uyushtirib turadigan Fyurnberg skripka partiyasining ijrochisi sifatida Gaydnni taklif etdi. Bu to'garak uchun Gaydn yigirmata kvartet yozib berdi. Mana shularda yangi uslub xususiyatlari endi juda tayinli bir tusda ko'zga tashlanib ko'rinadiki, bular uning keyingi asar-larida anchagina rivoj topib bordi: musiqasining nixoyat darajada jushkin va quvnoq, xazil-mutoyiba oxrngida bo'lib, xalq raqsi va xalq' qo'shig'iga asoslanganligi, gomofoniyali-garmonik printsipda bayon qilinganligi shular jumlasidandir.

Gaydnning bir nechta dastlabki simfoniyalari ham xuddi shu davrga mansub, bularni u 1759 yildan boshlab, chex grafi I. F. Mortsin saroyida kapelmeysterlik lavozimida ishlagan paytida yozgan. O'sha graf o'zining CHexiyadagi Lukavets degan allohida 12 kishidan iborat kichik orkestr

kapellasini saqlar, bunga Gaydn rahbarlik qilar edi. Orkestr kapellasi tarkibining kichik bo'lishi XVIII asr o'rtalaridagi saroy musiqasi turmushi uchun tipik xodisa edi. Orkestr uchun yozilgan musiqa (divertismentlar, simfoniyalar) bilan kamer ansambli uchun yozilgan musiqasida deyarli aytarli farq yo'q edi. Gaydnning birinchi kvartetlari bilan birinchi simfoniyalari o'rtasida ham uncha farq bo'lmagan. Ikkinchi tomondan, musiqasining xarakteri, obrazlarining doirasi jihatidan simfoniya raqs divertismentiga yaqin turardi. Kompozitor ijodini o'rganish jarayonida shunga amin bo'lindiki umrining biror qismi besamar o'tmaganligi hamda boy meros qoldirganligiga amin bo'lindi. Kompozitor asarlari oz salmoqli tarixiga ega o'rnini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviya – engilmas kuch –T.: O'zbekiston,2008.
2. K.Rozenshild Istoriya zarubejnoy muziki M. Musiqalari 1969
3. B.Levik Istoriya zarubejnoy muziki M. Musiqalari 1974
4. M.Druskin Istoriya zarubejnoy muziki M. Musiqalari 1981
5. A.Kojenova Istoriya zarubejnoy muziki M. Musiqalari 1988
6. A.X.Trigulova Xorijiy musiqa adabietini T. Ilimlar 2009
7. A.X.Trigulova CHet el musiqa tarixi. Romantizm davri T.,Nizomiy nomli TDPU 2008
8. B.Levik CHet el musiqa tarixi T.O'qituvchi.1984

Elektron – ta'lim resurslar

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.Zionet.uz

tdpu-INTRNET. Ped

ХАЙРЛАШУВ СИМФОНИЯСИ

93 Largo Ганна

О-но вста-ет, све -

-ти-ло! Все вверх и - дет, все вверх! Бле -
Симон, Лука

-стит, го - рит!

cresc.

The musical score is written for a voice and piano. The voice part is in G major and common time. The piano part is in G major and common time. The score includes various musical notations such as notes, rests, and dynamic markings like 'p' and 'cresc.'.

GAYDNNING ASOSIY ASARLARI RO'YXATI.

Gaydnning asosiy asarlari ro'yxati Simfoniyalar

Jami 104 simfoniya

"Xayrlashuv"(1772)

Oltita "Parij" simfoniylari (1786)

O'n ikkita "London" simfoniylari (1791-1795)

Oksford simfoniyasi

Konsertlar

Fortepiano va orkestr uchun 20 ta konsert Skripka va orkestr uchun 9 ta konsert Violonchel va orkestr uchun 6 ta konsert

Boshqa cholg'ular (kontrabas, bariton, fleyta, valtorna) uchun 16 ta konsert Kamer ansambllar 77 ta torli kvartetlar

Fortepiano, skripka va violonchel uchun 35 ta trio

Torli cholg'ular uchun 30 ta trio

Skripka va fortepiano uchun 12 ta sonata

Skripka va ait uchun 6 ta duet

Fortepiano asarlari

Fortepiano uchun 33 ta sonata

Variatsiyalar, fantaziyalar

Vokal musiqasi

Oratoriyalar

"Dunyoning yaratilishi" (1798) "Yilfasllari"(1800)

14 ta messalar, shu jumladan admiral Nelson sha'niga messa Operalar

"Asmodey yoki Yangi maymok jin" (1751)

"Aptekachi"(1768)

"Kutilmaganda uchrashuv" (1775)

"Asl doimiylik" (1776)

"Oydunyosi"(1777)

"Orfey va Evridika" (1791)

Jami 24 ta opera

Torli, puflama cholg'ular va ansambllar uchun kamer asarlar Dunyoviy vokal-cholg'u janrlari

"Febning Pan bilan musobakalashuvi" "Kahvali"

"Dehkoncha" ("Krestiyancha") "Gerkulesning tanlovi" "Bir ovning o'zi meni tetiklashtiradi" "ShavkatH Leopold" va h.k.

Diniy asarlar Messalar Oratoriyalar Motetlar

Diniy kantatalar (199)

Matfeydan, Ioannndan, Lukadan, Markdan iztiroblar

Gaydnning cholg'u ijodi. re major sonatasi

Gaydnning kamer-cholg'u musiqa merosi torli kvartetlar (saksondan ortik), o'nlab kamer ansambHari (trio, skripka sonatalari), bir necha o'nlab klavir uchun yozilgan sonatalari va boshqa asarlar(variatsiyalar, rondolar)dan tashqil topgan.

Cholg'u musiqa

S i m f o n i y a l a r

„Xayrlashuv simfoniyasi" (1772)

Parij simfoniyasi (1786)

Oksford simfoniyasi (1788)

12 ta London simfoniyasi (1791 —1795)

Xammasi bo'lib 104* ta simfoniya

66 ta divertisment va kassatsiyalar

K o n t s e r t l a r

Fortepiano va orkestr uchun 20 ta kontsert

Skripka va orkestr uchun 9 ta kontsert

Violonchel za orkestr uchun 6 ta kontsert

Boshqa cholg'u asboblari (jumladan, kontrabas, bariton, fleyta, voltorna) uchun

16 ta kontsert.

Kamer ansambllari

77 ta torli kvartet

Fortepiano, skripka va violonchel uchun 35 ta trio

Torli cholg'u asboblari uchun 30 ta trio

Skripka va fortepiano uchun 12 ta sonata

Skripka va alt uchun 6 ta duet

Fortepiano asarlari

Fortepiano uchun 33 ta sonata

Variatsiyalar, fantaziyalar

Vokal musiqa

Oratoriyalar

„Olamning yaratilishi" (1798)

„Yil fasllari" (1800)

14 ta messa (jumladan, admiral Nelson sharafiga yozilgan messa.)

Operalar

„Asmodey, yoxud yang ok.sok iblis" (1751)

„Dorixonachi" (1768)

„Kutilmagan uchrashuv" (1775)

„Asl vafodorlik" (1776)

Gaydn ijodining asosiy obrazi xaqchilik.

Gaydnning 104 ga yaqin simfoniyalari.

Xayrlashuv simfoniyasi.1772

London simfoniyasi

